

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AVLOQULOVA SADOQAT SOBIRJON QIZI

ISTE'MOL TOVARLARINING RAQAMLI IDENTIFIKATSIYALASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD) on
Economics Sciences**

Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi

Iste'mol tovarlarining raqamli identifikatsiyalash tizimini
takomillashtirish..... 3

Авлоқулова Садоқат Собиржон қизи

Совершенствование системы цифровой идентификации
потребительских товаров..... 27

Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi

Improvement of the digital identification system for consumer goods..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AVLOQULOVA SADOQAT SOBIRJON QIZI

ISTE'MOL TOVARLARINING RAQAMLI IDENTIFIKATSIYALASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3131 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Munis Kurbonovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rixsimbayev Odiljon Kabiljanovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamasoatov Dilshod Ravshanovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-43, e-mail: info@tuse.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-43, e-mail: info@tuse.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ da tarqatildi.

(2026-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E.Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

J.S.Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.d., professor

T.S.Kuchkarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusi dolzarbligi. Jahon mamlakatlarida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgani sharoitida iste'mol bozorlari shaffofligi, mahsulot xavfsizligi va sifati bo'yicha talablar keskin oshgan. Global qiymat zanjirlarida soxta mahsulotlar, nooziq-ovqat tovarlaridagi tarkibiy nomuvofiqliklar, mahsulot kelib chiqishini yashirish holatlari iqtisodiy yo'qotishlar va iste'molchi ishonchining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois, iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash va mahsulot raqamli pasporti (MRP) tizimini yaratish orqali hayotiylik davrida ekologik talablar izchilligini ta'minlashga yuqori darajada ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, Grand View Research xalqaro konsalting kompaniyasi hisobotiga ko'ra, mahsulot raqamli pasporti global bozorining hajmi 2024-yilda 213,9 mln AQSh dollariga baholanib, 2030-yilga kelib 1,23 mlrd AQSh dollariga yetishi prognoz qilingan. Shuningdek, 2025–2030 yillar uchun o'rtacha yillik o'sish sur'ati 34,9 foizni tashkil etishi prognoz qilingan¹. Mazkur holatlar MRP tizimlarining jahon bozorida yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotganini va katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, mazkur tizimni rivojlantirishga bo'lgan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish talab etilmoqda.

Xalqaro va mintaqaviy miqyosda iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash hamda raqamli mahsulot pasportini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosan mahsulotlarni yagona ma'lumotlar modeli va tizimlar o'rtasida o'zaro integratsiya imkoniyatini ta'minlash, ta'minot zanjiri bo'ylab mahsulotlar harakatini kuzatib borishdagi izchillik va nazoratni kuchaytirish, ekologik ko'rsatkichlarni raqamli mahsulot pasporti tarkibiga standartlashtirib kiritish, shuningdek, ma'lumotlar yaxlitligi va maxfiyligini blokcheyn (on-chain/off-chain) yondashuvlarini qo'llash, shifrlash orqali kafolatlash asosiy tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiyaning jadallashuvi bilan korxonalar axborot tizimlari, markirovka reyestrlari, bojxona va savdo axborot tizimlari o'rtasida ma'lumotlar muvofiqligi va almashinuvi uchun yagona yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelgan. Iste'molchilar uchun esa mahsulotlar to'g'risida olishi zarur bo'lgan ma'lumotlar, jumladan resurs sarfi, qayta ishlanuvchanlik, xavfli komponentlar, uglerod izi, chiqindilarni boshqarish tizimi kabi ekologik ko'rsatkichlar yetarli darajada standartlashtirilmagan. Mazkur holatlar ichki bozorda sifat nazoratini qiyinlashtirgan holda iste'molchilar uchun mahsulotlar to'g'risida aniq ma'lumotlarni shakllantiradigan raqamli yechimlar mavjud emas. O'zbekistonda bu yo'nalish davlat darajasida strategik ustuvorlik berilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmonida “aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish” va “tovarlar ishlab chiqaruvchilar ekotizimini joriy etish” kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur

¹ <https://www.grandviewresearch.com>

vazifalarning samarali ijrosi mahsulotlarni ekologik jamoatchilik nazoratini strategik va texnik tartibga solish va iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik, shuningdek, iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirishni talab etadi. Raqamli ma'lumotlar bazalarini yaratish orqali ekologik ko'rsatkichlar va identifikatsiyani yagona raqamli zanjirini shakllantirish orqali ichki bozorda mahsulotlar sifati, xavfsizligini va raqamli nazoratini o'rnatish hamda iste'mol tovarlari eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2023-yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 30-maydagi PQ-203-son "Majburiy raqamli markirovkalash jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2025-yil 23-maydagi PQ-190-son "Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-apreldagi 230-son "O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda texnologik jarayonlarni ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi, 2025-yil 20-yanvardagi 20-son "O'zbekiston Respublikasida mahsulot va xizmatlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy axloqiy, shuningdek madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash va mahsulot raqamli pasportini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlari ma'lum darajada mahalliy va xorijiy mutaxassislarining ilmiy tadqiqotlarida aks etgan. Ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy jihatlari qator xorijiy mutaxassislar, xususan, N.Kshetri, I.Casino, M.Saberi, A.Kouhizadeh, T.K.Agrawal, E.Galvez, S.Francisco, Mihai Hulea tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan².Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida iste'mol tovarlarini raqamli

² N.Kshetri, "Blockchain's roles in meeting key supply chain management objectives." International Journal of Information Management, 39 (2018): 80–89; I.Casino, "A Systematic Literature Review of Blockchain-Based Applications: Current Status, Classification and Open Issues." Telematics and Informatics, 36 (2019): 55–81; M.Saberi, "Blockchain Technology and Its Relationships to Sustainable Supply Chain Management." International Journal of Production Research, 57(7) (2019): 2117–2135; E. Galvez, "Future challenges on the use of blockchain for food traceability analysis." Trends in Analytical Chemistry, 107 (2018): 222–232; S.Francisco, "The Supply Chain Has No Clothes: Technology Adoption of Blockchain for Supply Chain Transparency." Logistics, 2(1) (2018): 2; A.Kouhizadeh, "Blockchain and the circular economy: potential

identifikatsiyalash va MRP shakllantirish masalalari bo'yicha uslubiy yechimlar D.K.Shcheglov, V.N.Kiselyov, S.A.Smirnov, N.T.Belyatskaya, V.G.Gusakov, A.A.Bogdanovich tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan³. Mazkur tadqiqotlar asosan iste'mol tovarlarining identifikatsiya tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ularni barqaror rivojlanish maqsadlarida qo'llash amaliyotlari o'rganilmagan.

Mahalliy-iqtisodchi olimlaridan V.Q.Qobulov, S.S.G'ulomov, A.A.Musaliev, D.M.Rasulev, B.A.Begalov, A.N.Aripov, A.A.Maxmudov, I.A.Eshmamatov, T.Z.Teshabayev, A.T.Kenjabayev, A.M.Abduvohidov, M.K.Abdullayev, A.A.Abidov, B.R. Vafoyev, T.S.Qo'chkorov, M.M.Maxammadiyevlar iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini o'z ilmiy ishlarida yoritib berishgan⁴. Ular O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ishlarga o'zlarining sezilarli ilmiy hissalarini qo'shganlar.

Yuqorida keltirilgan mualliflar tomonidan O'zbekistonda raqamli texnologiyalardan foydalanilgan holda mahsulotlarni identifikatsiyalash va ularning

tensions and critical reflections from practice." *Production Planning & Control*, 31(11-12) (2020): 950-966; Niinimäki, K. *Sustainable Fashion in a Circular Economy*. Helsinki: Aalto ARTS Books, 2018; T.K.Agrawal, "Traceability in Textile and Clothing Supply Chains: Classifying Implementation Factors and Information Sets via Delphi Study." *Sustainability*, 11(6) (2019): 1698.; Hulea, M. "Digital Product Passport Implementation Based on Multi-Blockchain Approach with Decentralized Identifier Provider." *Applied Sciences*, 14(11) (2024): 4874.

³ Щеглов Д.К. «Инструмент управления жизненным циклом систем: цифровой паспорт изделия». – Компетентность, № 3, 2025; Беляцкая Т.Н. «Тенденции мирового рынка электронной коммерции». – 2021; Беляцкая Т.Н. «Мировой рынок электронной коммерции и опыт Китая». – Бизнес. Инновации. Экономисс, 2021, Иссуэ 5, пп. 62–69; Вовченко Н.Г., Андреева Л.Ю., Киселёв В.Н. Цифровая маркировка товаров как инструмент борьбы с нелегальным оборотом продукции // Экономика и управление. – 2020. – № 5. – С. 45-52; Смирнов С.А. Применение RFID-технологий в логистике и управлении цепями поставок // Логистика сегодня. – 2020. – № 4. – С. 23-29; Гусakov В.Г. Цифровые технологии в идентификации и прослеживаемости аграрной продукции // Аграрная экономика. – 2019. – № 6. – С. 15-22; Богданович А.А. Цифровая прослеживаемость товаров как инструмент обеспечения качества и безопасности // Экономика и управление. – 2022. – № 1. – С. 55-61..

⁴ Қобулов В.Қ. Алгоритмизация в социально-экономических системах. – Т.: фан,1989.; Фуломов С.С., Ходиев Б.Ю., Мусалиев А.А., Бегалов Б.А. Менеджмент информационных систем. Монография. – Т.: фан 2007 – 342с.: Расулев Д.М. Иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш босқичида инвестицияни молиялаштиришни эконометрик моделлаштириш (Банклар инвестицияси мисолида). Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати Т.: Фан ва технологиялар, 2003 йил, 40 б.; Бегалов Б.А. Ахборот коммуникациялар бозорининг шаклланиш ва ривожланиш тенденцияларини эконометрик моделлаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши Т.: 2001 – 330б.; Арипов А.Н. Ахборот-коммуникациялар соҳасида бошқарув тизимини такомиллаштириш муаммолари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.:2004; Махмудов А.А. Олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқариш механизмни такомиллаштириш. иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Т.: 2019; Эшмаматов И.А. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг назарий-педагогик асосларини шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Т.; 2018.; Teshabayev T.Z. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish. Iqt.f.d. ...diss. avtoref. – Т.: TDIU, 2019. ; Kenjabayev A.T. Tadbirdorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2005. 32 b.; Abdvohidov A.M., Digital Development of Education and Universities: Global Challenges of the Digital Economy International Journal of Instruction. 2020.11.15.; Abidov A.A. Korxonalar faoliyati axborot tizimi barqarorligini modellashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2024. 75b.; Vafoyev B.R. Korxonalarda marketing samaradorligini oshirishda axborot tizimlaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т.: TDIU. 2012.; Abdullayev M.K. Korxonalar boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi. I.f.f.d. dis. avtoref. – Т.: TDIU. 2019.; Qo'chkorov T.S., Совершенствование информационной системы казначейства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики: Автореф. дис. док. эконом. наук (Dsc) Tashkent. 2019, 76 b.; Maxammadiyev M.M. Mehnat bozorini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. I.f.f.d. dis avtoref. – Т.: TDIU. 2023.:

raqamli pasportini tashkil etish istiqbollari masalalari, uning o'ziga xos xususiyatlari, bu boradagi mavjud muammolar hamda xalqaro tajriba yaxlit tizimli tarzda tadqiq etilmagan va ularni takomillashtirish yuzasidan konseptual takliflar ishlab chiqilmagan. Raqamli identifikatsiyalash borasida mavjud muammolarini hal etish masalalarini o'rganish va takomillashtirish yuzasidan aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur ilmiy dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot tarmoqlari innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi strategik yo'nalishi bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimining ilmiy mohiyatini ochib berish, uning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari va global tendensiyalarini tahlil qilish hamda raqamli platformalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib, O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini baholash hamda mamlakatda iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimini joriy etishdagi muammolarni zamonaviy texnologiyalar asosida hal etish yo'llarini ishlab chiqish;

raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;

iste'molchilar so'rovnomasi asosida mahsulot raqamli pasportida aks etadigan ma'lumotlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash;

mahsulotlarning raqamli pasporti tizimini yaratish uchun algoritmik model ishlab chiqish hamda uning dasturiy ta'minotini shakllantirish;

O'zbekistonda raqamli mahsulot pasporti platformasini yaratish orqali iste'mol tovarlari bozorini barqaror rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, so'rovnoma usuli, qiyosiy tahlil, kuzatuv va so'rov usuli, modellashtirish, maqsadli va dasturiy yondashuvlar, umumlashtirish, qayta ishlash, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "mahsulotlarning raqamli pasporti" tushunchasi iste'mol tovarlari haqidagi muhim ma'lumotlarni barcha qiymat zanjiridagi manfaatdor tomonlarga yetkazish uchun yaratilgan, raqamli identifikatsiya tizimi sifatida mahsulotning butun hayotiy davrini (xomashyoni qayta ishlash bosqichidan

tortib, qayta ishlash va foydalanishga qadar) qamrab olib iste'molchilar uchun to'liq va keng qamrovli ma'lumotlar to'plamini taqdim etuvchi ekotizim sifatida takomillashtirilgan;

iste'molchilarning iste'mol tovarlari tanloviga mahsulotning texnik ko'rsatkichlari, resurslar va ularning kelib chiqish manbalari, ta'mirlash ishlari, qayta ishlash imkoniyatlari va hayotiylik davri davomida atrof-muhitga ta'siri kabi ma'lumotlarni ($0,71 \leq Q_n \leq 1$) kuchli, ($0,57 \leq Q_n \leq 0,70$) ahamiyatli va ($0 \leq Q_n \leq 0,56$) ahamiyatsiz ta'sirlariga ko'ra mahsulot raqamli pasporti dasturiy tizimlariga kiritilishi asoslangan;

“EkoIz.uz” dasturiy platformasida tashkilot, ishlab chiqaruvchi va ta'minotchilarning iste'mol tovarlari raqamli pasporti ma'lumotlarini blokcheyn texnologiyalariga asoslangan “chaincode” tizimi orqali shaffofligi va tizimning kiberxavfsizligi ta'minlash asoslangan;

iste'molchilarni real vaqt rejimida tovarlarning butun hayot aylanishi davomida ekologik, ergonometik, texnik va iqtisodiy, kelib chiqishi va standart talablarga mosligi bo'yicha ma'lumotlar bilan vizual tanishish imkonini ta'minlovchi “EkoIz.uz” platformasi mexanizmi, dasturiy ta'minot tizimi va ishlash algoritmi taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tovarlarni raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar asosida ta'minlashdagi muammolar o'rganilgan va ularni hal etish yo'llari taklif etilgan;

tovarlarni raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqilgan;

“omilli tahlil” usuli asosida mahsulotlarning raqamli pasporti tizimida aks etadigan ma'lumotlarning ahamiyatlilik darajasi aniqlangan;

mahsulotlarning raqamli pasporti tizim algoritmi va dasturi ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, muhim ilmiy xulosalarni asoslashda zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanilganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil va talqin etilganligi, tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan iste'mol tovarlarini identifikatsiyalash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari mahsulotlarni ekologik talablarga mosligini tartibga solish borasidagi nazorat tizimlarini tartibga solish uchun asos sifatida xizmat qilishi hamda iste'mol tovarlari bozorini nazorat qilishning me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy tadqiqot davomida iste'mol tovarlarini identifikatsiyalash tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan xulosa va nazariy bilimlardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida,

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda uning tasarrufidagi korxonalarda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, ma‘ruzalar matni, keys stadiylar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iste‘mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra mahsulotlarning raqamli pasporti tushunchasi iste‘mol tovarlari haqidagi muhim ma‘lumotlarni barcha qiymat zanjiridagi manfaatdor tomonlarga yetkazish uchun yaratilgan, raqamli identifikatsiya tizimi sifatida mahsulotning butun hayotiy davrini (xomashyoni qayta ishlash bosqichidan tortib, qayta ishlash va foydalanishga qadar) qamrab olib iste‘molchilar uchun to‘liq va keng qamrovli ma‘lumotlar to‘plamini taqdim etuvchi ekotizim sifatida takomillashtirishga oid ilmiy takliflar “Elektron hukumat” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14 aprel 136-son ma‘lumotnomasi). Ilmiy yangilik amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda iste‘mol tovarlari haqidagi muhim ma‘lumotlarni barcha qiymat zanjiridagi manfaatdor tomonlarga yetkazish uchun yaratilgan, mahsulotning butun hayotiy davrini (xomashyoni qayta ishlash bosqichidan tortib, qayta ishlash va foydalanishga qadar) qamrab olib, iste‘molchilar uchun to‘liq va keng qamrovli ma‘lumotlar to‘plamini taqdim etuvchi tizim sifatida “mahsulotlarning raqamli pasporti” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

iste‘molchilarning iste‘mol tovarlari tanloviga mahsulotning texnik ko‘rsatkichlari, resurslar va ularning kelib chiqish manbalari, ta‘mirlash ishlari, qayta ishlash imkoniyatlari va hayotiylik davri davomida atrof-muhitga ta‘siri kabi ma‘lumotlarni ($0,71 \leq Q_n \leq 1$) kuchli, ($0,57 \leq Q_n \leq 0,70$) ahamiyatli va ($0 \leq Q_n \leq 0,56$) ahamiyatsiz ta‘sirlariga ko‘ra mahsulot raqamli pasporti dasturiy tizimlariga kiritilishi taklifi “O‘zbekiston respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi huzuridagi raqobat siyosati va iste‘molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi” faoliyatiga joriy etilgan (2025-yil 26-dekabrda №541/01-11 sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur axborot manbalari mahsulotlarni raqamli identifikatsiyalash tizimlari axborot portallari uchun axborotlar manbalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Natijada mahsulot turlari uchun ma‘lumotlar kiritishda mijozlar tanloviga moslashuvchanlik ta‘minlangan.

taklif etilgan “EkoIz.uz” dasturiy platformasida tashkilot, ishlab chiqaruvchi va ta‘minotchilarning iste‘mol tovarlari raqamli pasporti ma‘lumotlarini blokcheyn texnologiyalariga asoslangan “chaincode” tizimi orqali shaffofligi va tizimning kiberxavfsizligi ta‘minlash taklifi “O‘zbekiston respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi huzuridagi raqobat siyosati va iste‘molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi” faoliyatiga joriy etilgan (2025-yil 26-dekabrda №541/01-11 sonli ma‘lumotnomasi). Taklif etilgan iste‘mol tovarlari bozorini nazorat jarayonlarini amalga oshirish xarajatlarini 24 foizga, “EkoIz.uz” platformasi foydalanuvchi subyektlarda mahsulot sotuvlaridagi boshqaruv xarajatlari o‘rtacha 6,5–7,4 foizgacha qisqartirishga erishilgan;

taklif etilgan iste'molchilarni real vaqt rejimida tovarlarning butun hayot aylanishi davomida ekologik, ergonometrik, texnik va iqtisodiy, kelib chiqishi va standart talablarga mosligi bo'yicha ma'lumotlar bilan vizual tanishish imkonini ta'minlovchi "EkoIz.uz" platformasi mexanizmi, dasturiy ta'minot tizimi va ishlash algoritmi "O'zbekiston respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi" faoliyatiga joriy etilgan (2025-yil 26-dekabrda №541/01-11 sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida, "EkoIz.uz" platformasi orqali 2025 yilning sentyabr-oktyabr oylarida jami 70 ta tadbirkorlik subyektlarining jami 250 dan ortiq mahsulot turlarini iste'molchilar QR kod mobil ilovasi orqali kuzatil imkoni bergan va mazkur platformaga kiritilgan mahsulotlar savdosini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonuniga asosan "Ekoiz" nomli dasturiga №DGU 58151 raqamli guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, 9 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 7 ta ilmiy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi. Izlanishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Natijalar, ularni amaliyotga tatbiq etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda iste'mol tovarlari raqamli pasportini joriy etishning ilmiy-nazariy jihatlarini**" deb nomlangan birinchi bobida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda raqamli transformatsiyaning ahamiyati va iste'mol tovarlarning raqamli pasportini joriy etishning ilmiy uslubiy asoslari keltirilgan. Jahon mamlakatlarida iste'mol tovarlari raqamli pasportlarini joriy etish tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Raqamli transformatsiya bugungi giperraqobat sharoitida korxonalarining texnologik o'zgarishlarga moslashuvi, mijozlarga yetkaziladigan qiymatni oshirishi

va bozorda raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy strategik yo'nalish sifatida talqin etiladi. U raqamli texnologiyalarni biznes jarayonlarining barcha bo'g'inlariga integratsiya qilish orqali operatsion samaradorlikni oshirish, qo'lda bajariladigan jarayonlarni avtomatlashtirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish hamda xodimlarga strategik va qo'shimcha qiymat yaratadigan faoliyatga e'tibor qaratish imkonini beradi. Raqamli platformalar va katta ma'lumotlar tahlili orqali mijozlar xatti-harakatini chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Mahsulotlarning raqamli pasportlari (MRP) jismoniy mahsulotlar haqidagi muhim ma'lumotlarni butun hayotiy sikli davomida qiymat zanjiri ishtirokchilari va iste'molchilarga yetkazib beradigan tizim hisoblanadi. Mazkur identifikatsiya tizimi barqaror va aylanma iqtisodiyotga o'tishda asosiy vosita sifatida qaraladi. U mahsulotning kelib chiqishi, tarkibi, ta'mirlash va qayta ishlash imkoniyatlari, hayotiy davri yakunida qanday utilizatsiya qilinishi, shuningdek, ekologik iz va uglerod izini qamrab olgan keng qamrovli ma'lumotlar majmuasini taqdim etadi. MRP barqaror mahsulotlarga xos xususiyatlar hisoblangan energiya samaradorligi, uzoq muddatli ishlash, texnik xizmat ko'rsatish qulayligi, qayta ishlashga moslik, kimyoviy xavfsizlik, qayta ishlangan materiallardan foydalanish va ekologik izning pastligi kabi ma'lumotlar orqali iste'molchilarning mazkur mahsulotlardan foydalanish tajribalarini oshirishga xizmat qilishi belgilangan.

MRP mahsulotlar, komponentlar va materiallar uchun raqamli identifikatsiya kartasi vazifasini bajarib, elektron shakldagi ma'lumotlar orqali ishlab chiqaruvchilar, ta'minotchilar, iste'molchilar, davlat va bojxona organlariga barqarorlik va me'yoriy talablarga muvofiqlik bo'yicha oqilona qaror qabul qilish imkonini beradi. MRP tarkibiga mahsulotning texnik ko'rsatkichlari, resurslar va ularning kelib chiqishi, ta'mirlash va qayta ishlash imkoniyatlari, hayotiy davr davomida atrof-muhitga ta'siriga oid batafsil ma'lumotlar kiritiladi. Ushbu axborot ta'minot zanjiri bo'ylab shaffoflikni oshiradi, ijtimoiy va ekologik xavflarni aniqlashga imkon beradi hamda korxonalariga chiqindilarni aniq xaritalash va qisqartirish uchun zarur raqamli asos yaratadi.

MRP da kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar Yevropa Komissiyasi tomonidan barcha tegishli manfaatdor tomonlar bilan yaqindan maslahatlashgan holda aniqlangan va mahsulotning xususiyatlariga bog'liq ma'lumotlar manbalarini o'zida mujassamlaydi. 1-jadvalda MRP da keltiriladigan ma'lumotlar turlari va ularning xususiyatlari keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, mahsulotlarning raqamli pasporti deganda – iste'mol tovarlari haqidagi muhim ma'lumotlarni barcha qiymat zanjiridagi manfaatdor tomonlarga yetkazish uchun yaratilgan, raqamli identifikatsiya tizimi sifatida mahsulotning butun hayotiy davrini (xomashyoni qayta ishlash bosqichidan tortib, qayta ishlash va foydalanishga qadar) qamrab olib iste'molchilar uchun to'liq va keng qamrovli ma'lumotlar to'plamini taqdim etuvchi ekotizim sifatida qaraladi.

Raqamli mahsulot pasportlari korxonalar, iste'molchi va iqtisodiyot darajasida sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi jumladan, korxonalar uchun mahsulot barqarorligini monitoring qilish va hisobotlarni avtomatlashtirish, jarayonlarni optimallashtirish va yangi aylanma biznes modellari yaratish imkonini beradi. MRP iste'molchilar uchun

mahsulotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar shaffofligini oshirib, ongli va barqaror tanlov qilish sharoitini yaratadi. Makro darajada esa MRP resurs va energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, ikkilamchi xomashyolar bozorini rivojlantirish hamda barqaror investitsiyalar uchun ishonchli ma‘lumot bazasi shakllanishiga xizmat qiladi.

1-jadval.

Mahsulotlarning raqamli pasporti ma‘lumotlari va ularning xususiyatlari.⁵

Asosiy ma‘lumotlar	Xususiyatlari
Mahsulotning texnik ko‘rsatkichlari	1) Mahsulotning o‘lchami, vazni, quvvati, ishlash tezligi va funksional imkoniyatlari 2) Mahsulot tarkibida ishlatilgan materiallar turi 3) Mahsulotning xalqaro yoki mahalliy sifat standartlariga mos kelish 4) Ishlash jarayonida qancha energiya talab qilinishi
Resurslar va ularning kelib chiqishi	1) Mahsulot uchun ishlatilgan resurslar va ularning kelib chiqish joyi 2) Mahsulotning qancha qismi qayta ishlangan materiallardan tashkil topganligi 3) Resurslarning ishlab chiqarishdan tortib mahsulotga qadar bo‘lgan jarayonlari 4) Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan energiya va texnologiyalar, ularning ekologik xavfsizligi
Ta‘mirlash ishlari	1) Mahsulot qismlarining oson ajratilishi va ta‘mirlanishi. 2) Zaxira qismlar mavjudligi va ularning narxi yoki qulay yetkazib berilishi. 3) Ta‘mirlash bo‘yicha yo‘riqnomalar va foydalanuvchilar uchun o‘quv materiallari mavjudligi
Qayta ishlash imkoniyatlari	1) Mahsulot qismlarini qayta ishlash uchun ajratish jarayonining qulayligi. 2) Qayta ishlash uchun maxsus texnologiyalarning mavjudligi yoki talab qilinishi. 3) Qayta ishlangan mahsulotning yangi mahsulotga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan ulushi. 4) Mahsulotni qayta ishlashga ixtisoslashgan markazlar ro‘yxati va ularga yetkazish imkoniyatlari.
Hayotiylik davri davomida atrof-muhitga ta‘siri	1) Mahsulotning ishlab chiqarish, foydalanish va foydalanish bosqichlaridagi umumiy uglerod izlari. 2) Mahsulotdan foydalanish vaqtidagi chiqindilar miqdori (masalan, issiqxona gazlari yoki boshqa zararli moddalarning ajralishi). 3) Mahsulotning hayotiylik davri davomida qancha energiya sarflashi. 4) Hayotiy davr tugagandan so‘ng mahsulotning qayta ishlanishi va foydalanishga qulayligi. 5) Mahsulotdan foydalanish jarayonida atrof-muhitga bo‘lgan umumiy ta‘sir (masalan, zaharli moddalarning chiqarilishi yoki suv resurslariga zarar yetkazish).

Dissertatsiyaning **“Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda iste‘mol tovarlarining raqamli pasportini joriy etish holati va imkoniyatlari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini baholangan va iste‘mol tovarlarining raqamli identifikatsiyalash tizim va xususiyatlari o‘rganilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlarini ta‘minlashda

⁵ Muallif ishlanmasi.

iste'mol tovarlarining raqamli identifikatsiyalash tizimini joriy etish imkoniyatlari baholangan.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish, iste'mol bozori nazoratini kuchaytirish hamda soxta mahsulotlar aylanmasining oldini olish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda iste'mol tovarlarini raqamli identifikatsiyalash tizimini joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Raqamli markirovkalash mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab iste'molchiga yetib borishigacha bo'lgan har bir bosqichni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi va bu orqali mahsulot sifati, xavfsizligi va qonuniyligi kafolatlanadi.

O'zbekistonda raqamli markirovkalash tizimi mahsulotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratib, mahsulot sifati, xavfsizligi va qonuniyligini kafolatlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-avgustdagi 478-sonli "Majburiy raqamli markirovkalash lozim bo'lgan tovarlarning chakana savdosini tartibga solish to'g'risida"gi qarori bilan "Asl Belgisi" milliy markirovka tizimini joriy etish bosqichlari, texnik jihatlari va majburiy talablar tartibga solingan. 2022-yil 10-martdagi PQ-149-sonli qaror orqali dori vositalari va tibbiy buyumlar, 2022-yil 24-oktabrdagi PQ-631-sonli qaror orqali ichimlik suvlari va ichimliklar bo'yicha majburiy markirovka joriy etilgan edi⁶. Ushbu hujjatlar asosida mahsulotlarga QR yoki "Data Matrix" kodlar qo'yilishi, ulardan foydalangan holda mahsulotning agregatsiyasi, onlayn-kassa integratsiyasi, elektron hujjatlar aylanmasi va soliq nazorat mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, raqamli markirovkalash tizimi O'zbekistonda barqaror, shaffof va xavfsiz bozor muhitini shakllantirishda muhim yo'nalishlardan biridir.

Mahsulotlar ma'lumotlariga qulay kirish imkoniyatini ta'minlanishi "Shtrix kodlar" asosida amalga oshiriladi. Shtrix kodlar avtomatik identifikatsiyalash usullari ichida eng keng tarqalgan vosita hisoblanadi. Hozirda GS1 shtrix kodlari global kommunikatsiya tizimining asosi sifatida tan olingan bo'lib, ularni boshqarish va rivojlantirish Xalqaro GS1 tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikada shtrix kodlash xizmatlaridan faol foydalanayotgan foydalanuvchilar soni 628 nafarni, ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar soni esa 1 581 tani tashkil qilgan. Tizim orqali berilgan buyurtmalar soni 10099 taga yetgan bo'lib, umumiy original maketlar soni 82 276 tani tashkil etgan. Shtrix kod maketini tayyorlash va reestriga kiritish bo'yicha eng ko'p buyurtma bergan kompaniyalar reytingiga asosan "O'zbekiston Shampani" AJ (257 buyurtma) eng yuqori o'rindan joy olgan. Keyingi o'rinlarda esa "CRAFERS" MChJ (238), "PREMIUM-ALCO" MChJ (219) va boshqalar.

2-jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2017–2025 yillar davomida davlat reestriga ro'yxatdan o'tkazilgan original shtrix kod maketlarining tovarlar kategoriyasi bo'yicha taqsimoti aks etgan.

O'zbekistonda shtrix kodlashning sektorlar bo'yicha dinamik o'sishini, ayniqsa kundalik iste'mol mahsulotlari segmentida raqamli identifikatsiyaning faol joriy etilayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon mahsulotlarning kuzatuvchanligini

⁶ <https://www.lex.uz/docs/-7047448>

ta'minlash, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish va iste'molchi huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlarni ko'rib chiqish orqali mahsulotlarning raqamli pasportida aks etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha to'liq va yetarlicha ilmiy metodik bazalar mavjud emasligi aniqlandi. Shunga ko'ra tadqiqotda sifat tadqiqotiga asoslangan yondashuvdan so'rovnomma usulidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topilgan.

2-jadval.

Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan original shtrix kod maketlarni tovarlar kategoriyasi bo'yicha reytingi⁷

Tovarlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	Umumiy
Maishiy texnika	24	640	1305	341	490	1029	2561	1403	268	8061
Kosmetika, parfyumeriya, gigiyena vositalari	68	727	317	557	586	616	621	582	233	4307
Tibbiyot vositalari	67	1049	543	598	483	641	424	357	49	4211
Ichimliklar	0	0	0	0	0	0	126	1659	565	2350
Spirтли ichimliklar	416	2443	3683	3140	3097	2709	2421	2931	533	21373
Neft va kimyo mahsulotlari, tabiiy resurslar	0	5	124	289	166	342	92	90	109	1217
Kiyim-kechak	624	3245	2298	54	27	4	2	0	0	6254
Yoritish moslamalari	0	306	425	48	692	699	0	0	2	2172
Oziq-ovqat mahsulotlari	430	4710	3396	2971	2708	2491	2573	2880	1256	23415
Qurilish materiallari	0	295	122	58	238	352	280	117	41	1503
Tamaki mahsulotlari	0	77	68	63	66	194	115	84	38	705
To'qimachilik	1	299	0	83	77	7	1	0	0	468
Xo'jalik mollari	95	1807	543	242	51	81	303	152	64	3338
Maktab, yozuv va kanslyariya mollari	26	131	173	95	94	157	102	31	59	868
Umumiy	1780	16867	13673	8785	8854	9456	9728	10391	3400	82934

Tadqiqot uchun maxsus so'rovnomma shakli ishlab chiqilgan. So'rovnomma 20 ta MRP ma'lumot turiga asoslanib tuzilgan. Ushbu axborot turlari mahsulotning texnik xususiyatlari, resurs manbalari, ta'mirlash imkoniyatlari, qayta ishlash sharoitlari hamda hayotiy sikl davomida atrof-muhitga ta'siri kabi 5 asosiy toifaga ajratildi.

⁷ O'zbekiston respublikasi sifat va standartlashtirish agentligi ma'lumotlari (<https://www.standart.uz>)

So‘rovnoma tasodifiy tanlov usulida O‘zbekistonning 18 yoshdan katta aholi orasida o‘tkazildi. Umumiy respondentlar soni 439 (N = 439) nafarni tashkil etgan. Iste‘mol tovarlari raqamli pasportini joriy etishga ta‘sir etuvchi omillarning muhimligini ajratish maqsadida quyidagi gipotezalar kiritilgan:

H1 – iste‘molchilarning mahsulotning texnik ko‘rsatkichlari haqida muntazam ravishda xabardor bo‘lish istagi ularning iste‘mol tovarlariga raqamli pasport tizimini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.


H2 – iste‘molchilarning mahsulot tarkibidagi resurslar va ularning kelib chiqishi haqida aniq ma‘lumotga ega bo‘lish istagi ularning iste‘mol tovarlariga raqamli pasport tizimini joriy etishni qo‘llab-quvvatlashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

H3 – iste‘molchilarning mahsulotning ta‘mirlash imkoniyatlari va texnik xizmat ko‘rsatish holati haqida muntazam ma‘lumot olishga bo‘lgan ehtiyoji raqamli pasport tizimini joriy etishga bo‘lgan ijobiy munosabatini kuchaytiradi.

H4 – iste‘molchilarning mahsulotning qayta ishlanishi yoki utilizatsiya qilish imkoniyatlari haqida xabardorlik darajasini oshirish istagi raqamli pasport tizimini qo‘llab-quvvatlash ehtimolini oshiradi.

H5 – iste‘molchilarning mahsulotning butun hayotiy sikli davomida atrof-muhitga ko‘rsatadigan ta‘siri haqida shaffof ma‘lumotga ega bo‘lishga bo‘lgan talabi raqamli pasport tizimini qo‘llab-quvvatlash ehtimolini oshiradi.

Mazkur gipotezalarni asoslash uchun yig‘ilgan so‘rovnoma ma‘lumotlari qayta ishlanib, omil tahlili (EFA – Exploratory Factor Analysis) amalga oshirildi. Gipotezalarni asoslash uchun umumiy metodologik yondashuv 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Iste‘mol tovarlari raqamli pasportini joriy etish imkoniyatlarini aniqlash⁸

Omili tahlil statistik tahlil usuli bo‘lib, ko‘p o‘lchovli ma‘lumotlar orasidagi yashirin tuzilmalarni aniqlashga xizmat qiladi. U orqali kuzatilgan o‘zgaruvchilar ortida yotgan asosiy omillarni (faktorlar) aniqlash mumkin. Omil tahlilining maqsadi – ko‘p sonli o‘zgaruvchilar o‘rniga ularning asosiy guruhlovchi omillarini aniqlab, ma‘lumotlar hajmini soddalashtirishdir.

Matematik jihatdan omilli tahlil ko‘p omilli regression tahlil kabi har bir omil asosiy o‘zgaruvchining chiziqli kombinatsiyasi sifatida ifodalanadi. Modelning standart ko‘rinishi quyidagicha ifodalash mumkin:

⁸ Muallif ishlanmasi

$$X_i = A_{i1}F_1 + A_{i2}F_2 + A_{i3}F_3 + \dots + A_{im}F_m + V_iU_i \quad (1)$$

bunda, X_i – I omillarning standart o‘zgaruvchisi;

A_{ij} – tegishli omilning standartlashgan regressiya koeffitsienti;

F_i – umumiy omil;

V_i – I omil bo‘yicha j o‘zgaruvchining standart regressiya koeffitsienti;

U_i – o‘zgaruvchan I omilning ahamiyatli koeffitsienti;

m – jami omillar soni.

Tadqiqot natijasida KMO (Keyzer–Mayer–Olkin) qiymati 0.863 ga teng bo‘ldi. Bartlett testi orqali korrelyatsion matritsaning sferik emasligi tekshirildi, ya’ni o‘zgaruvchilar orasida statistik jihatdan sezilarli bog‘liqlik mavjudligi aniqlanadi. Quyidagi natijalar olingan:

$$\chi^2 \text{ (Chi-square)} = 2384.157$$

$$\text{Erkinlik darajasi (df)} = 190$$

$$\text{Ahamiyatlilik darajasi (p-value)} = 0.000$$

Bu qiymat $p < 0,001$ bo‘lganligi sababli, nol gipoteza (ya’ni, o‘zgaruvchilar orasida hech qanday korrelyatsiya yo‘q) rad etiladi. Demak, respondentlarning 20 ta savol bo‘yicha bergan baholari o‘rtasida ichki bog‘liqlik mavjud, bu esa omil tahlili o‘tkazilishi statistik jihatdan asosli ekanini bildiradi.

SPSS omil tahlili natijasida “Eigenvalue > 1.0” mezoniga asoslangan holda 5 ta asosiy komponent ajratildi. Ular mos ravishda 27.09%, 9.37%, 8.10%, 6.32% va 5.30% dispersiyani tushuntiradi. Umumiy holda ushbu 5 komponent birgalikda so‘rovnomadagi 20 ta indikator asosida 56.17% umumiy ma’lumot farqini izohlab beradi. Bu esa, MRP bo‘yicha iste’molchilarning qabul qilishiga ta’sir qiluvchi yashirin omillar mavjudligini va ularni toifalash mumkinligini ko‘rsatadi.

Varimax usulida so‘rovnoma savollari 5 ta mantiqiy omilga guruhlandi. Birinchi omil mahsulotning texnik va ishlab chiqarish jihatlariga (Q6, Q8, Q9), ikkinchi omil esa ekologik va resurs xavfsizligiga (Q14, Q15, Q20) tegishli savollarni o‘z ichiga olgan. Uchinchi omil mahsulotni ta’minlashga oid atributlarni, to‘rtinchi omil esa qayta ishlash imkoniyatlarini qamrab olgan. Beshinchi omil esa mahsulotning hayotiy sikli davomida yuzaga keladigan xavfsizlik va foydalanish holatlariga tegishli savollarni birlashtirgan. Ushbu omillarning yuklanish koeffitsiyentlari 0.511 dan 0.813 gacha bo‘lib, ularning statistik jihatdan mustahkam va tushunarli guruhlar hosil qilganini ko‘rsatadi. Bu esa mahsulot raqamli pasportida aks ettirilishi kerak bo‘lgan axborot turlarini omillar asosida modellashtirish imkonini beradi (3-jadval).

$$F_1 = 0,791Q_3 + 0,708Q_8 + 0,638Q_6 + 0,524Q_{12} + 0,523Q_{11} + 0,421Q_4 + 0,450Q_2 \quad (2)$$

$$F_2 = 0,813Q_{20} + 0,785Q_{14} + 0,721Q_{15} + 0,511Q_{17} \quad (3)$$

$$F_3 = 0,692Q_1 + 0,608Q_5 + 0,565Q_9 \quad (4)$$

$$F_2 = 0,712Q_{19} + 0,701Q_{13} + 0,660Q_{18} + 0,623Q_{16} \quad (5)$$

$$F_2 = 0,688Q_{10} + 0,661Q_7 \quad (6)$$

Tuzilgan komponentlar matritsasi⁹

	Komponent					
	1	2	3	4	5	
Q3	,791					juda kuchli bog‘liqlik
Q8	,708					juda kuchli bog‘liqlik
Q6	,638					qoniqarli bog‘liqlik
Q12	,524					qoniqarli bog‘liqlik
Q11	,523					qoniqarli bog‘liqlik
Q20		,813				juda kuchli bog‘liqlik
Q14		,785				juda kuchli bog‘liqlik
Q15		,721				juda kuchli bog‘liqlik
Q17		,511				qoniqarli bog‘liqlik
Q1			,692			qoniqarli bog‘liqlik
Q4	,421					kuchsiz bog‘liqlik
Q2	,450					kuchsiz bog‘liqlik
Q5			,608			qoniqarli bog‘liqlik
Q9			,565			qoniqarli bog‘liqlik
Q19				,712		juda kuchli bog‘liqlik
Q13				,701		juda kuchli bog‘liqlik
Q18				,660		qoniqarli bog‘liqlik
Q16				,623		qoniqarli bog‘liqlik
Q10					,688	qoniqarli bog‘liqlik
Q7					,661	qoniqarli bog‘liqlik

Tadqiqot natijalari iste‘mol tovarlariga raqamli pasport tizimini joriy etishda iste‘molchilarning axborot ehtiyojlari turlicha omillar bilan belgilanadi va ularni aniq tahlil qilish MRP tizimi mazmunini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respondentdan to‘plangan ma‘lumotlar asosida o‘tkazilgan omil tahlili natijasida, mahsulot haqida 20 ta axborot turi 5 ta asosiy yashirin omilga guruhlashtirildi. Bu omillar birgalikda umumiy dispersiyaning 56,17 foizini izohlaydi va iste‘molchilarning raqamli pasportdan kutilmalarini tushuntirishda statistik asos beradi.

